



*Muxtasar OLIMOVA,*  
Guliston davlat universiteti dotsenti, PhD  
E-mail: [olimova.muxtasar0927@gmail.com](mailto:olimova.muxtasar0927@gmail.com)

PhD A.Mansurov taqrizi asosida

## PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE UTOPIAN STATE THEORY IN PLATO'S "THE REPUBLIC"

Annotation

Plato's "The Republic" remains one of the most influential and controversial works not only in ancient philosophy but in the entire history of philosophy. This article provides a philosophical analysis of the utopian state theory put forth in Plato's "The Republic." Specifically, it delves into the core ideas of the work, the structure of the ideal state, the role of justice within it, the interrelation of psychology and politics, the significance of the education system, and the concept of the philosopher-king. Furthermore, the article examines the influence of Plato's theory on subsequent views of society and the state, as well as its relevance in the modern world. Historical-philosophical methods were employed in the analysis of Plato's ideas.

**Key words:** Plato, "The Republic", utopia, ideal state, justice, philosopher-king, psychology, education, politics, philosophy, ancient world.

## ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ТЕОРИИ УТОПИЧЕСКОГО ГОСУДАРСТВА В ТРУДЕ ПЛАТОНА «ГОСУДАРСТВО»

Аннотация

Труд Платона «Государство» остается одним из самых влиятельных и спорных произведений не только античной философии, но и всей истории философии. В данной статье проводится философский анализ теории утопического государства, выдвинутой Платоном в его работе «Государство». В частности, глубоко исследуются основные идеи произведения, структура идеального государства, роль справедливости в нем, взаимосвязь психологии и политики, значение системы образования, а также концепция философа-правителя. Кроме того, рассматриваются влияние теории Платона на последующие взгляды об обществе и государстве, а также вопросы ее актуальности в современном мире. В статье для анализа идей Платона использовались историко-философские методы.

**Ключевые слова:** Платон, «Государство», утопия, идеальное государство, справедливость, философ-правитель, психология, образование, политика, философия, античность.

## AFLOTUNNING "DAVLAT" ASARIDA UTOPIK DAVLAT NAZARIYASINING FALSAFIY TAHLILI

Annotatsiya

Aflotunning "Davlat" asari nafaqat qadimgi dunyo falsafasining, balki umuman falsafa tarixining eng ta'sirchan va munozarali asarlaridan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu maqolada Aflotunning "Davlat" asarida ilgari surilgan utopik davlat nazariyasi falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, asarning asosiy g'oyalari, ideal davlatning tuzilishi, unda adolatning o'rni, ruhshunoslik va siyosatning o'zaro bog'liqligi, ta'lim tizimining ahamiyati hamda faylasuf-hukmdor konsepsiyasi chuqur o'rganiladi. Shuningdek, Aflotunning ushbu nazariyasining jamiyat va davlat haqidagi keyingi qarashlarga ta'siri hamda uning zamonaviy dunyodagi dolzarbligi masalalariga to'xtalinadi. Maqolada Aflotunning g'oyalarini tahlil qilishda tarixiy-falsafiy usullardan foydalanilgan.

**Kalit so'zlar:** Antik davr, Aflotun, "Davlat", utopiya, ideal davlat, adolat, faylasuf-hukmdor, ruhshunoslik, ta'lim, siyosat, falsafa.

**Kirish.** Antik davr faylasufi Aflotun o'zining eng buyuk "Davlat" asarida ta'rif berganidek, "jamiyatni dono kishilar boshqarishini tasavvur qiling. Bunday ideal davlatni hukmdorlar siyosatchilar yoki aristokratlar emas, balki faylasuf-qiro'lar - tengsiz donolik va bilimga ega bo'lgan shaxslar boshqarishi kerak". Ushbu konsepsiya boshqaruv va jamiyat haqidagi ko'pgina zamonaviy tushunchalarimizni so'roq ostiga oladi va muqobil rahbarlar boshqaruv bo'yicha nazariyalarni taklif etadi.

Aflotun (mil. avv. 427-347) Afinada zodagon oilada tug'ilgan. Aflotun Afinani tark etib, sayohat qilib, o'rganishga kirishdi, lekin o'zining taniqli ustoz Sokratning "bilim fazilatidir" degan o'gitiga doim amal qildi. Aflotun sayohatlari davrida Janubiy Italiyadagi yunon shaharlarida u mistik Pifagor jamiyatining ta'limotlari bilan tanishdi. U yerda sinfiy jamiyat tuzilishi va matematikaga urg'u bergan bo'lsada, keyinchalik bu tanishuvlar Aflotunning Afinadagi akademiasida muhim o'rin tutgan.

U konservativ Misr jamiyatini o'ganib aholining tabaqalanish tizimidan qattiq ta'sirlangan. Sirakuzada hukmdorlarning to'g'ri boshqaruvi haqida ma'ruzalar o'qigani uchun Aflotun Diyonisiy Ining g'azabiga duch keldi. Diyonisiy Aflotunni qisqa muddatga qul qildi. Ozod bo'lgandan so'ng, u Afinaga qaytib, o'zining akademiasiga asos soldi, bu o'limiga qadar shu yerda faoliyat yuritdi. Aflotun akademiasini falsafaning birinchi buyuk maktabi bo'lib, u yerda Aflotun davlat arboblari tayyorlash uchun ta'lim markazini tashkil etgan. O'z shogirdlari orqali Aflotun Afina va boshqa shahar-davlatlarning siyosiy tizimlariga ta'sir ko'rsatdi. Uning falsafasini baholashimiz uchun bizgacha yetarlicha ijodiy merosi yetib kelgan. Ularni o'qiy turib Yevropadagi siyosiy tafakkurining ildizlarini topish mumkin. Aflotun o'sha paytdagi yunon shahar-davlatlarining holatini chuqur o'rgandi. Kuzatishlaridan so'ng, u jamiyatda milliy birlik va farovonlik mustahkamlash uchun "ideal davlat" loyihasini ishlab chiqdi. Durust davlat o'z fuqarolarida yaxshi

fazilatlarini rivojlantira oladi va bu jamiyatning farovonligini ta'minlaydi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Platonning utopik davlat nazariyasini falsafiy tahlil qilishda adabiyotlarni uchta asosiy guruhga ajratish mumkin: klassik asarlar, G'arbiy Yevropa tanqidiy falsafasi va Markaziy Osiyo mutafakkirlarining talqinlari.

Klassik manbalar va fundamental asarlarni o'rganar ekanmiz, keyingi barcha asrlar uchun Aflotun yaxshi amaliy tajriba boshlab berganligini qayd etib o'tish zarur. Mavzu o'sha davrning o'zidayoq davom ettirgan alloma Arastu edi. U o'zining "Siyosat" asarida Aflotunning shogirdi sifatida u birinchi bo'lib "Davlat" asaridagi utopik elementlarni, xususan, xotin-qizlar va mulkiy umumiylik masalasini tanqid ostiga oladi.

XX asr tanqidiy va liberal yondashuvlaridan biri sifatida Aflotun "Davlat" asarini "totalitarizmning ildizi" deb baholagan eng mashhur tadqiqotchi Karl Popper hisoblanadi. Popper Aflotunni erkinlikka dushmanlikda va kasta tizimini oqlashda ayblaydi. Uning "Ochiq jamiyat va uning dushmanlari" asari Platon utopiyasini tahlil qilishda burilish yasadi.

Sharq falsafasi va Islom uyg'onish davri talqinlarida Aflotunning ideal davlat nazariyasi Sharq mutafakkirlari, xususan, Abu Nasr al-Farobiy tomonidan islomiy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirildi. Farobiy Aflotunning "faylasuf-hukmdor" tushunchasini o'zining "birinchi rahbar" (payg'ambar-faylasuf) konsepsiyasi bilan boyitadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Aflotun zamonida ko'plab shahar-davlatlar o'zlarining boshqaruvlarini mukammal deb hisoblagan holatda alloma bunga qarshi chiqadi. U siyosatda o'z bilim va tajribasiga ega bo'lganlarga aniq o'rin ajratmagan jamiyatdagi adolatni shubha ostiga oladi. Aflotun Afina shahrining "sirlil" tomonlarini - uning takaburligi, harbiy, siyosiy va ijtimoiy xatolarini, hatto o'z fuqarolariga nisbatan kamsitishlarini ham yaxshi bilardi. Aflotun Afina davlatining tashqi ko'rinishini ko'rib, o'zining mukammal davlati, ya'ni "ideal davlat" g'oyalarini shakllantirdi.

Aflotunning utopik jamiyati uchun ishlab chiqqan rejasi uch bosqichda amalga oshirilishi kerak edi. Uch bosqich - korrupsiyani yo'q qilish va yangi tamoyillar hamda g'oyalarini o'z ichiga oladi. Bu uch bosqich quyidagilardan iborat:

1. "Donishmand-rahbar"lardan iborat yangi boshqaruvchi sinf (Gvardiya).

2. Erkaklar va ayollardan iborat davlat gvardiyasi.

3. Gvardiya a'zolari umumiy yashash sharoitida, o'zlarining xususiy mulklarisiz yashaydilar.

Birinchi bosqich "Donishmand-rahbar"lardan tashkil topgan yangi boshqaruvchi sinf, ya'ni Gvardiyani o'z ichiga oladi. U faylasufni bilimlarga katta moyilligi bo'lgan shaxs deb ta'riflagan. Uning fikriga ko'ra, hukmdorning muvaffaqiyati kaliti bu bilimdir, yoki faylasuflar rahbar bo'lishi, yoki rahbarlar faylasuf bo'lishi kerak. Aflotunning bu birinchi bosqichga intilishi Afinada yuqori mavqega ega odamlarni yoqirmasliklaridan kelib chiqqan. Ushbu nazariyasi tufayli Afinaliklar Aflotunni o'zini xuddi shu toifaga mansub, jamiyatdan o'zini ustun ko'radigan yolg'onchi yoki foydasiz shaxslar deb hisoblashgan.

Aflotunning ikkinchi bosqichi Gvardiyaning erkaklar va ayollardan tashkil topishini o'z ichiga oladi. Bu g'oya Aflotun davri uchun juda oqilona edi, chunki ayollar o'sha davrda siyosatda ishtirok etmasdi. Ayollar nisbatan yaqindagi zamonlargacha siyosiy faol bo'lmagan, demak Aflotun nafaqat qadimgi yunon, balki hozirgi zamon standartlari bo'yicha ham juda bilimdon faylasuf bo'lgan.

Uchinchi bosqichda Gvardiya a'zolari umumiy yashash sharoitida, o'zlarining xususiy mulklarisiz yashashlari kerakligi aytiladi. Ular hatto boylikka ham ega bo'lmadilar.

Ular o'z narsalarini bo'lishib olardilar va shu tariqa, afinaliklar sinfiy mavqega ko'ra bir-biriga hasad qilish istagini yo'qotishardi. Hasad yo'qolardi, chunki boylikka ega bo'lish haqidagi tashvishlar bo'lmadi. Har kimning bir xil narsalarga ega bo'lishi sababli, kim nima egalik qiladi degan tortishuvlar bo'lmadi.

**Tahlil va natijalar.** Aflotunning ideal davlat konsepsiyasiga qat'iy ishonishiga asos bo'lgan bir necha muhim omillar mavjud. Quyida ularning asosiy sabablari keltirishga harakat qilamiz:

Aflotun Afina boshqaruv tizimidan chuqur norozi edi. Demokratiya fuqarolarga o'z yetakchilarini saylash imkonini bersa-da, Aflotun bu tizimni nuqsanli deb hisobladi. Uning fikricha, qaror qabul qilish jarayoni ommaviy mashhurlikka emas, balki donolik va malakaga asoslanishi lozim edi. O'zining "Davlat" asarida u demokratiyani shunday kemaga o'xshatadiki, undagi kema xodimlari mohir dengizchi o'rni ovoz baland va jozibador kapitanni saylaydilar. Uning demokratiyadan butunlay sovushi ustozlari Suqrotning qat'itilishi bilan yanada kuchaydi. Miloddan avvalgi 399-yilda Afina demokratiyasi Suqrotning tanqidiy fikrlashga undagani uchun o'limga hukm etdi. Aflotun uchun bu voqea demokratiyaning mantiqsiz va adolatsiz bo'lishi mumkinligiga yaqqol isbot edi. U hokimiyat omma qo'lida emas, balki bilim va fazilatli shaxslar qo'lida bo'lgan siyosiy tizimni barpo etishni istadi.

Aflotun yashagan davrda yunon shahar-davlatlari beqarorlikdan azob chekayotgan edi. Peloponnes urushi Afinani zaiflashtirib qo'ygan, rahbarlar tez-tez almashib turar, ularning aksariyati korrupsiyaga berilgan va hokimiyatga tashna edi. Aflotun bu tartibsizliklar ma'naviy tanazzulga olib kelayotganini - odamlar vijdonsiz, xudbin bo'lib borayotganini va umumiy manfaatlariga befarq bo'lib qolganini kuzatdi. U barqaror bo'lmagan hukumatlar hech qachon kuchli va jipslashgan jamiyat yaratolmasligiga ishonardi. Bunday hukumatlar fuqarolarni odillik va donolik ruhida tarbiyalashda muvaffaqiyatsizlikka uchragan edi, vaholanki, u buni adolatli va farovon davlat uchun hayotiy zarur deb bilar edi. Tartibni tiklash uchun Aflotun bundan tubdan farq qiluvchi siyosiy tuzilmani qidirdi.

Aflotun oddiy yechim taklif qildi: boshqaruvni dono va fazilatli insonlarga topshirish lozim. U haqiqat va adolat mohiyatini chuqur anglaydigan "faylasuf-hukmdorlar" tushunchasini kiritdi. Uning ideal davlatida bu yetakchilar adolatli va oqilona boshqaruvni ta'minlash uchun matematika, mantiq va falsafa kabi fanlar bo'yicha mashhaqqatli tayyorgarlikdan o'tishlari kerak edi. Aflotun kuzatgan o'z manfaatini ko'zlovchi siyosatchilardan farqli o'laroq, faylasuf-hukmdorlar shaxsiy manfaat uchun emas, balki umumiy farovonlik yo'lida hukmronlik qilishi lozim edi.

Aflotunning noroziligi faqat demokratiya bilan cheklanib qolmadi - u o'z davridagi barcha hukumat shakllarida kamchiliklarni ko'rdi. Oligarxiya hokimiyatni boylar qo'lida to'plagan bo'lsa, tiraniya vakolatlarini zolim hukmdorlar ixtiyoriga topshirardi. "Davlat" asarida u bunday tizimlar muqarrar ravishda tanazzulga yuz tutishini, chunki hokimiyat doimo noto'g'ri odamlarga berilishini ta'kidlaydi. Saylovlar, boylik yoki qo'pol kuch orqali bo'lishidan qat'i nazar, yetakchilik ko'pincha bunga noloyiq shaxslar qo'lida o'tib qolardi. Aflotun bu hukumatlarni barcha fuqarolarning farovonligi bo'lmish "umummanfaat"ni e'tiborsiz qoldirganlikda aybladi. U hokimiyat uchun kurashga emas, balki adolat va ma'naviy tarbiyaga ustuvorlik beruvchi davlatni tasavvur qildi.

Adolat Aflotun siyosiy falsafasining markaziy nuqtasi edi. U adolatni shunchaki mavhum tushuncha deb emas, balki tartibli jamiyatning poydevori deb bildi. Uning ideal davlatida shaxslarga o'z qobiliyatlariga qarab rollar berilar edi: donishmandlar boshqaradi, jasurlar himoya qiladi,

mehnatkashlar esa jamiyatni ta'minlaydi. U ushbu tuzilmani inson ruhiyatiga qiyosladi, ya'ni unda aql, iroda va ehtiyojlar o'zaro uyg'un bo'lishi shart. Korruptsiyaning oldini olish uchun Aflotun hatto hukmdorlarning oilasi yoki shaxsiy mulki bo'lmasligi kerakligini taklif qildi. Shunday qilib, ularning sadoqati shaxsiy manfaatlariga emas, balki butun jamiyatga qaratilgan bo'lishi lozim edi. Aflotunning ideal davlati har bir shaxs mazmunli hissa qo'shadigan adolatli va muvozanatli jamiyat yaratishni maqsad qilgan edi.

Aflotun shunchaki vaqtinchalik yechim izlamadi - u uzoq muddatli tinchlik va barqarorlikni kafolatlovchi siyosiy tizimni barpo etishni maqsad qildi. Uning e'tiqodiga ko'ra, adolatli jamiyat inson tabiatini aks ettirishi lozim: unda aql yetakchilik qiladi, shijoat unga tayanch bo'ladi, nafs va ehtiyojlar esa jilovlangan holda tutiladi. Uning ideal davlatida har bir fuqaro jamiyatdagi o'z o'rni va vazifasini chuqur anglaydi hamda barcha uyg'unlikda faoliyat yuritadi; bu esa o'z navbatida ijtimoiy nizolarni kamaytirib, hamjihatlikni mustahkamlaydi.

**Xulosa va takliflar.** Aflotun "Davlat" asarida bayon etilgan ideal davlat konsepsiyasi G'arb siyosiy falsafasining tamal toshi hisoblansa-da, asrlar davomida jiddiy tanqidlarga uchrab kelgan. Quyida uning faylasuf-hukmdorlar tomonidan boshqariladigan, qat'iy tabaqalangan hamda adolat va umummanfaat yo'lida qurilgan utopik jamiyatiga nisbatan bildirilgan asosiy tanqidiy qarashlar tahlilini keltiramiz:

Aflotunning ideal davlatidagi "uch to'liq" (islohotlar) hatto eng oddiy dehqonlarning hayot tarziga ham ijobiy ta'sir ko'rsata olish-olmasligi haqida aniq bir to'xtamga kelib bo'lmaydi.

Aflotun faylasuf-hukmdorlarning mutloq hukmronligini yoqlaydi. Uning fikricha, faqat bilimdonlar boshqarishi kerak, shu bois u barcha vakolatlarni ularning qo'lida to'playdi. Biroq, "hokimiyat insonni aynitadi, mutloq hokimiyat esa uni mutloq aynitadi" degan haqiqat faylasuf-hukmdorlarda ham namoyon bo'lishi muqarrar. Hukmdorlar orasida axloqiy qadriyatlarining inqirozi ularni vaqt o'tishi bilan muqarrar ravishda zolimlarga (tiranlarga) aylantiradi.

Ideal davlat nazariyasining eng katta nuqsoni shundaki, Aflotun davlat uchun mo'ljallagan siyosiy tuzilmaning amaliy mexanizmlari hech qachon to'liq ochib berilmagan.

Hatto faylasuf-hukmdorlar boshqaruvida ham hech qanday qonunlar haqida so'z bormaydi. Bu esa "fuqarolar shunchalik baxtiyor va mamnun bo'ladilarki, jinoyat qilishni xayollariga ham keltirmaydilar, shu bois qonunlarga ehtiyoj qolmaydi" degan asossiz va xomxayol tushunchaga yo'l ochadi.

Aflotunning hayoliy davlatida shu kabi kamchiliklar kuzatilsada bugingi dunyoda mavjud bo'lib turgan demokratik tartibotlar uchun va shu vaqtgacha ijod qilingan ushbu yo'nalishga doir asarlarga asos bo'lib xizmat qildi.

#### ADABIYOTLAR

1. Афлотун. Давлат: насрий дoston. Тошкент: Янги асп авлоди, 2015. Б. 464.
2. [https://en.wikipedia.org/wiki/Dionysius\\_I\\_of\\_Syracuse](https://en.wikipedia.org/wiki/Dionysius_I_of_Syracuse)
3. <http://classics.mit.edu/Aristotle/politics.html>
4. Popper, K.R. The Open Society and Its Enemies. Vol. 1: The Spell of Plato. London. Routledge. 2013. P. 365
5. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. T. 2021. B. 320.